

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY va O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**A.U.Elmuratova**

**SHAXS XUSUSIYATLARINI O`RGANUVCHI PSIXOLOGIK  
TESTLAR**

**(Metodik qo`llanma)**

**NUKUS-2018**

**Tuzuvchi: A.U.Elmuratova**

*Bu metodik qo'llanma «Pedagogika va psixologiya» talim yo'nalishi bo'yicha bilim oladigan talabalar va maktab amaliyotchi psixologlari uchun tavsiya etiladi.*

*Mazkur qo'llanma bir qator psixologik testlardan iborat bo'lib, ular yordamida inson shaxsining barcha individual-psixologik xususiyatlari: mulaqatchanligi, xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari, kasbga yo'naltiruvchi va o'z-o'zini baholash darajalari kabi malumotlarga ega bo'lish mumkin.*

*Bu metodik qo'llanmada metodikalarni qo'llash tartibi, ko'rsatmalar, javob varaqlari berilgan bo'lib, qo'llanma amaliyotchi psixologlar, o'qituvchilar va talabalarga mo'ljallangan.*

**Mas'ul redaktor:**

***Z.Sh.Sherimbetova-** Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, docent.*

**Taqrizchilar:**

***Sh.B.Saparov-** Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti docenti, psixologiya fanlari nomzodi.*

***A.Bekimbetova-** Qoraqalpoq davlat universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedasi docenti, pedagogika fanlari nomzodi.*

Metodik qo'llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy- uslubiy Kengashi (28-avgust 2017 yil, №1 bayonnoma) qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

## **So`z boshi**

Inson psixologiyasini bilish, o`z qobiliyati va iqtidorini shakllantirishni o`rganish, yangicha fikirlash va mulohaza qilish, jamiyatda uchraydigan favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikga psixologik jihatdan tayorlikni taminlash, obektiv va to`g`ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi. Hozirgi kunda zamon talablariga mos kadrlar tayorlashda psixologlar oldiga bir qator talablar quyilmoqda ulardan biri-malakali mutaxassislar sifatida o`zligini anglash, o`z qobiliyatlarini ko`rsata bilish, individualligi va shuning bilan birga atrofida qilargaga psixologik yordam berish, shaxsiy fazilatlarini hamda hislatlarini bilgan tarzda iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko`rsatishlarini maqsad qilib qo`ymoqda. Amaliyotchi psixologlar o`z ishlarin tashkil qilishda eng avvalo, inson ruhiyatini o`rganishlari, atrofida ro`y berayotgan islohatlarga holis baho berishlari, o`zi va o`zgalar ruhiyatining sir-asrorlaridan befarq bo`lmaslik kabi layoqatlarini o`stirishning elementar vositalarini qanday qilib tashkillashtirish kerakligidan xabardor bo`lishlari kerak.

Insonlarning his-tuyg`ulari, o`zini tuta bilishi, aqliy o`shini, qobiliyatini, atrofida qilargaga bilan munosabatlari, xarakteri kabi xususiyatlarni turli xil vazifalar, savollar bilan aniqlab to`g`ri tashxis qo`ya olishlari kerak bo`ladi. Ushbu metodik qo`llanmada biz mana shunday topshiriqlar, savollarni havola etmoqdamiz.

Testlar yoradamida talabalar va amaliyotchi psixologlar ushbu metodikalardan foydalanib o`z imkoniyatlarini sinab, aniqlab olishlarida yordam beradi degan umiddamiz.

### **Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash so`rovnomasi**

Mazkur so`rovnoma V.F.Ryaxovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash maqsadida qo`llanadi.

Sinaluvchiga ko`rsatma: «Sizning etiboringizga bir qator oddiy savollar havola etiladi. Siz ularga «ha», «yo`q», «bazida» deb javob qaytarishingiz mumkin. Savollarga tez, ko`p o`ylamay javob berishingiz talab etiladi».

### ***Savollar.***

1. Sizni oddiy yoki ish bilan bogʻliq uchrashuv kutib turibdi. Uchrashuv vaqtini kutish sizni asabiylashtiradimi?

2. Sizga biror majlis, anjuman yoki shu kabi boshqa tadbirda nutq soʻzlash, maruza oʻqish, axborot etkazish topshirilsa, bundan halovatingizni yoʻqotib, bezovta boʻlib yurasizmi?

3. Shifokor qabuliga borishni kasal zoʻrayib ketguncha choʻzib yuradigan odatingiz bormi?

4. Sizni boshqa shaharga mehnat safariga joʻnatishmoqda. Siz avallari hech qachon bu shaharda boʻlmagansiz. Siz bor imkoniyatingizni ishga solib, ushbu mehnat safaridan qutilib qolishga urinasizmi?

5. Oʻz kechinmalaringizni birovga u kim boʻlishidan qatʼiy nazar gapirib berishni yoqtirasizmi?

6. Koʻchada notanish odam sizga iltimos bilan (yoʻlni koʻrsatib yuborish, vaqtni aytib yuborish va boshqa iltimoslar bilan) murojaat qilishi jingingizga tegadimi?

7. Har xil avlod vakillari, haqiqatdan ham, bir birini tushinishi qiyin, deb oʻylaysizmi?

8. Tanishingiz bir necha oy avval sizdan qarz olgan boʻlsa, unga pulni qaytarish iltimosi bilan murojat qilishga uyalasizmi?

9. Restoran yoki kafeda sizga sifatsiz taom keltirildi. Siz indamay likopchani jahl bilan bir chetga surib qoʻyasizmi?

10. Notanish odam bilan yoʻlgiz qolganda, siz suhbatga kirishmaysiz, oʻzingiz gap boshlamaysiz. Shundaymi?

11. Siz borgan joyda odamlar uzun navbat hosil qilib turishgan boʻlsa (masalan, doʻkonda, kutubxonada, kassada) niyatingizdan qaytmay qator oxiriga kelib turarmidingiz?

12. Nizoli vaziyatlarni hal etish bilan shugʻullanuvchi biror komissiya ishida qatnashish sizni choʻchitadimi?

13. Siz sanat asarlariga, badiiy asarlarga baho berishda boshqalarning fikr-mulohazalarini etiborga olmaysiz. Shundaymi?

14. Siz yaxshi bilgan biror masala boʻyicha birov aniq xato gapirayotgan boʻlsa,

bu odam bilan baxslashmasdan indamay qo`ya qolasizmi?

15. Ish yoki o`qish yuzasidan biron muayyan muammoni hal etishda yordam berishingizni iltimos qilganda, ensangiz qotadimi?

16. Fikringizni o`g`zaki aytgandan ko`ra yozma tarzda bildirishni maqul ko`rasizmi?

Natijalarni baholash: har bir «ha» degan javob uchun 2 ball qo`yiladi; har bir «bazida» degan javob uchun 1 ball qo`yiladi; har bir «yo`q» degan javob uchun 0 ball qo`yiladi.

Natijalar talqini.

30-32 ball. Muloqotchanlik darajasi ancha past. Bu sizdagi jiddiy muammo. Chunki bundan avvalo o`zingiz aziyat chekasiz. Biroq yaqinlaringizga ham oson tutib bo`lmaydi. Hamkorlikdagi faoliyatni talab qiluvchi ishni sizga ishonib topshirib bo`lmaydi. Muloqotchanroq bo`lishga, o`zingizni boshqarishga harakat qiling.

25-29 ball. Siz yolg`izlanishni yaxshi ko`rasiz, shuning uchun do`stlaringiz kam. Notanish odamlar bilan tanishish, notanish joylarga borish zarurati halovatingizni buzadi. Siz o`zingizning bu xususiyatingizni bilasiz va o`zingizdan norozi ham bo`lasiz. Lekin faqat norozilik bilan cheklanmang – xarakterni o`zgartirish o`z qo`lingizda. Eslab ko`ring: birorta ishga qiziqib ketganingizda ancha muloqotchan bo`lib qolasiz-ku!

19-24 ball. Siz malum darajada muloqotchansiz va notanish vaziyatda o`zingizni yo`qotib qo`ymaysiz. Yangi muammolar sizni qo`rqitmaydi, ammo notanish odamlar bilan muloqot qilishda ancha extiyotkorsiz, baxs-munozalarga bajonidil qo`shilmaysiz. Bazida gaplaringizda zaruratsiz kinoya-kesatiq ko`payib ketadi. Biroq bu kamchilikni tuzatsa bo`ladi.

14-18 ball. Siz etarlicha muloqotchansiz, qiziquvchansiz, suhbatdosh qiziq narsalar haqida gapirganda, uni diqqat bilan tinglaysiz. Muloqotda ancha sabrlisiz, o`z nuqtai nazaringizni hissiyotga berilmay himoya qilasiz. Notanish odamlar bilan suhbatlashishga to`g`ri kelganda, bezovta bo`lmaysiz, ayni vaqtda shovqin suron davralarni yoqtirmaysiz, bironing bachkana qiliqlari va ko`p gapirishi gashingizga tegadi.

9-13 ball. Siz juda muloqotchansiz (bazida meyoridan ortiq), qiziquvchan, gapdonsiz, har xil masalalarlar bo`yicha o`z fikringizni bildirishni yaxshi ko`rasiz, bu

esa bazida atrofdagilarning gashiga tegadi. Notanish odamlar bilan bajonidil tanishasiz, odamlarning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz. Hech kimning iltimosini erda qoldirmaysiz, lekin berilgan hamma vadalarni bajara olmasligingiz mumkin. Bazida jahl ustida qattiq gapirib yuborasiz, biroq tezda jahlingizdan tushasiz. Jiddiy muammolar bilan to'qnashganda sizga sabr-toqat etishmaydi. Ammo xohlasangiz hech qanday muammo oldida taslim bo'lmasligingiz mumkin.

4-8 ball.Siz juda-juda muloqotchansiz, gapingiz ichingizga sigmaydi. Doim hamma voqealardan xabardorsiz, har xil baxs-munozara, tortishuvlarda qatnashishni xush ko'rasiz, lekin jiddiy mavzular sizni zeriktirib yuborishi mumkin. Biror masala bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasangiz ham, bu masala yuzasidan so'zga chiqishga doim tayyorsiz. Hamma joyda o'zingizni erkin his etasiz, har qanday ishga kirishib ketaverasiz, ammo har doim ham uni oxirigacha etkazmaysiz. Shuning uchun rahbariyat va hamkasblar sizga biroz xavotir va shubha bilan qaraydilar. Bu xususiyatlaringiz haqida bosh qotirib ko'ring.

3 va undan kam ball. Sizning muloqotchanlik darajangiz meyordan ortiq darajada yuqori. Juda sergapsiz, sizga aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashaverasiz, hal etishga qurbingiz etmaydigan muammolarni bartaraf etishga kirishaverasiz, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda har xil nizolarning kelib chiqishiga sababchi bo'lib qolasiz. Ancha xafalanuvchan, jazavaga moyilsiz, jiddiy ishni sizga topshirmagan maqul. O'zingizning ustingizda, xarakteringiz ustida ishlang. Avvalo o'zingizda sabr-toqatni, vazminlik va bosqlikni tarbiyalang, boshqalarga hurmat ko'zi bilan qarashni o'rganing. Eng muhimi, o'z sog'ligingiz haqida qayguring. Ishoning bunday hayot tarzining oqibatlari jiddiy bo'lishi mumkin.

### Javob varaqasi

F.I. \_\_\_\_\_

№	Ha	yo`q	Bazida	№	ha	yo`q	bazida
1				1			
2				2			
3				3			
4				4			
5				5			
6				6			

7				7			
8				8			

### **O`z xarakterimizni chizamiz**

Qo`lga flamaster yoki qalam olib, xayolingizga erk berib, keltirilgan 12 katakka rasm chizing. So`ngra izohlarga murojaat qiling.

Izohlar.

1. Kulib turgan qiyofa – yumor hissi, diplomatik, tinchliksevar tabiatli inson.

Karikatura – boshqalar bilan kelisha olmaslik, ichki biqlik.

Quyosh – etakchilikka davo qilish.

Gul – ayolsifatlik, tashqi ko`rinishga ko`p etibor berish.

Ko`z – ma`grurlik, shubhalanuvchanlik, shaxsiy munosabatlarni ongli tashkillashtirish.

2. Kvadrat tashqarisiga chiquvchi rasm – bezovtalik, hovliqish, uyda o`tura olmaslik.

Yolgiz uycha – iliq oilaviy muhitni qumsash.

Rasm ham kvadrat ichida, ham tashqarisida - qiziqishlar uy va tashqi olam o`rtasida to`gri praporcional.

3. Nishonga yo`naltirilgan o`q-yoy – maqsad sari sabr-toqat bilan intilish.

Boshqa chiziqlar va kamon yoylari – ma`grur, lekin o`z maqsadlaridan shubhalanuvchan.

Yoylar va nishonlarga umuman o`xshamaydigan rasm – boshqarish qiyin bo`lgan, to`polonchi odam.

4. Ko`plab rasmlar – do`stlarning ko`pligi.

Bittagina chiziq - ichki biqlik, «ichimdagini top» degan odam.

Ġisht – tushkun kayfiyatga, injiqlikka moyillik.

5. Berk yaxlit shakl (bino, sim yo`goch, hayvon bo`yni) – so`gлом turmush tarzi.

Chiziqlar orasi bo`sh qoldirildi, chiziqlar tanib bo`lmas darajaga etkazildi – uyatchanlik, jinsiy masalalarda tortinchoqlik, ular haqida gapirishni yoqtirmaslik.

Daraxt poyasi – jinsiy hayotni turmush qurish bilan bo`glash, daraxtda mevalar – bolalarni sevish.

6. Rasmga tobe bo`lish, yani rasmni uning yo`nalishida davom ettirish – odamlar ishonchini tez qozonish, begona odamlarga tez tasir o`tkazish.

Burchakli geometrik shakl – jamoadan ajralib qolish, jamoada etakchilikka intilish, rashkchilik.

7. To`lqin o`rtasidagi surat – o`ziga ishonch, xavsiramaslik (aks holda o`ziga ishonmaslik).

Cho`kayotgan buyum – kelajakdan xavotirlanish.

Zanjir, naqsh – sabr-toqat bilan, astoydil mehnat qilish, kam xato qilish.

8. Kvadratdagi narsalar qiziqishlar doirasini ifodalaydi. Kvadrat bo`sh – hayotdan zerikish (xobbi qidirish kerak).

9. Rasmga tobe bo`lish, yani kvadrat chizish, boshqa geometrik shakllar bilan simmetrik naqsh hosil qilish – intizom, jamoadagi mehnatni tashkil eta bilish.

Qora kvadrat shtrixlangan, natijada qiyshiq chiziqli, nosimmetrik geometrik shakl hosil qilingan – avtoritetlarni tan olmaslik, qatiyat, qaysarlik.

10. Aylanalar yopib qo`yildi – yordamga, qo`llab-quvvatlanishga muhtojlik, biror narsani mustaqil hal etishga qiynalish.

Aylanalar yopilmadi – mustaqillik, muayyan shaxsiy maqsadlarga egalik.

Odam qulog`iga o`xshash rasm – sirli xarakter.

Choynak dastasi – ota yoki onalik hissining kuchli ekani.

11. Biror o`yinga o`xshatish – musobaqalashishga, kurashishga moyillik.

Sxemani kvadratgacha etkazish yoki unda uyga tegishli biror belgini tasvirlash – xo`jalik masalalarini eplay olish (ko`pincha ayollar shunday chizadi), ularga ko`p etibor berish.

12. Nuqtalardan biror rasm bo`lagi (chumolilar, quyon dumi, tovuqlar cho`qayotgan don va h.) sifatida foydalanish – kuchli xayol.

Nuqtalar aylanaga birlashtirildi – mantiqiy fikrlash, amaliy aql kuchliligi.



## **O`smir tomonidan sinfning idrok etilishiga xos xususiyatlarni o`rganish metodikasi**

Shaxslararo munosabatlarning tarkibiy qismlaridan biri odamlarning bir-birini idrok etishi va tushunishidan iborat. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi jarayoniga bir qancha omillar – ijtimoiy ustanovkalar, shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, insonlarning bir-biri haqidagi malumotlari va boshqalar tasir ko`rsatadi. Ijtimoiy persepchiya jrayoniga nafaqat shaxslararo munosabatlar, balki insonning guruh bilan bo`lgan munosabatlari ham tasir ko`rsatadi. Shu tufayli guruh individ tomondan qanday idrok etilayotganini o`rganish shaxslararo idrok jarayonini tadqiq etishning muhim jabhasidir.

Mazkur metodika E.V. Zalyubovskaya tomonidan taklif etilgan bo`lib, individda guruhni idrok etishning 3 tipidan qaysi biri ustun ekanini aniqlashga xizmat qiladi. Bu tiplar quyidagilardan iborat:

1-tip. Individ guruhni o`z faoliyatiga halaqit berayotgan narsa sifatida idrok qiladi yoki unga neytral munosabatda bo`ladi. Guruh individ tomonidan yaxlit birlik sifatida idrok etilmaydi. Individ hamkorlikdagi faoliyatdan o`zini chetga tortadi, ko`proq individual faoliyatni xush ko`radi, uning guruh azolari bilan bo`lgan aloqalari sust bo`ladi. Guruhni idrok etishning bunday tipini «Individualistik tip» deb atash mumkin.

2-tip. Individ guruhni yaxlit birlik va mustaqil qadriyat sifatida idrok qiladi. Uning uchun butun guruh va guruh azolarining muammolari birinchi o`rinda turadi. Shu tufayli individ butun guruhning ham, ayrim azolarining ham muvaffaqiyatidan o`zini manfaatdor, deb biladi. Umumiy faoliyatga o`z hissasini qo`shishga intiladi. Individda jamoaviy mehnatga nisbatan ehtiyoj kuzatiladi. Guruhni idrok etishning bunday tipini «Kollektivistik tip» deb atash mumkin.

3-tip. Individ guruhni u yoki bu shaxsiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida idrok etadi. Bunda guruh individ uchun qanchalik foydaliligiga bog`liq ravishda idrok etiladi va baholanadi. Individ guruhning mutasaddi, muayyan masalalar bo`yicha zarur axborotni va yordamni bera oladigan vakillarini maqul ko`radi. Guruhni idrok etishning mazkur tipini «Pragmatik tip» deb atash mumkin.

So`rovnoma 14 hukmdan iborat. Har bir hukm 3 muqobil variantga ega. Variatlar guruhni idrok etishning 3 tipidan biriga mos keladi.

Ko`rsatma: «Biz talim jarayonini takomillashtirish maqsadida maxsus tadqiqot o`tkazayapmiz. Sizing so`rovnoma savollariga beradigan javoblaringiz bizga bu borada yordam berishi mumkin. Siz so`rovnomada har bir hukm gapdan keyin berilgan variantlar (a, b, v) dan biridagi fikrni tanlashingiz kerak. Tanlangan fikr sizning nuqtai nazariningizni to`liqroq aks ettirishi lozim. Unutmang, javoblar orasida to`g`ri yoki noto`g`ri yo`q. Ulardan faqat bittasini tanlang».

### **So`rovnoma.**

1. Guruhda menga eng yaxshi sherik bo`lishi mumkin ...

A. Mendan ko`ra ko`proq narsani bilgan odam.

B. Barcha masalalarni hamkorlikda echishga intiladigan odam.

V. O`qituvchining diqqatini bo`lmaydigan odam.

2. Eng yaxshi o`qituvchi bu ...

A. Individual yondashadigan o`qituvchi.

B. Boshqalarning yordam berishi uchun sharoit yaratib beruvchi o`qituvchi.

V. Jamoada har kimga erkin fikr bildirish uchun imkoniyat beruvchi o`qituvchi.

3. Men hursand bo`laman, agar mening do`stlarim ...

A. Mendan ko`ra ko`proq narsalarni bilsalar va menga yordam bera olsalar.

B. Boshqalarga halaqit bermay mustaqil ravishda muvaaffaqiyat qozona olsalar.

V. Zarurat tu`gilganda boshqalarga yordam bersalar.

4. Menga juda yoqadi, agar ...

A. Guruhda hech kimga yordam kerak bo`lmasa.

B. Vazifalarni bajarishga hech kim halakit bermasa.

V. Boshqalar mendan ko`ra yomonroq tayyorlangan bo`lsa.

5. Menimcha, qo`limdan ko`p narsa keladi, qachonki ...

A. Boshqalar qo`llab-quvvatlaganda va menga yordam berganda.

B. Harakatlarim etarlicha ra`gbatlantirilganda.

V. Hamma uchun foydali bo`lgan tashabbusni ilgari surish imkoni bo`lganda.

6. Menga shunday jamoalar yoqadiki ...

A. U erda har bir inson barchaning muvaffaqiyatidan manfaatdor bo`ladi.

B. U erda har kim o`z ishi bilan bilib-bilib shuğullanadi va bir-biriga halaqit bermaydi.

V. U erda har bir inson o`z vazifasini bajarishda boshqalarga suyanadi.

7. O`quvchilar fikricha eng yomon o`qituvchi bu ...

A. O`quvchilar o`rtasida raqobat muhitini hosil qiluvchi o`qituvchi.

B. O`quvchilarga etarlicha etibor bermaydigan o`qituvchi.

V. Guruh bilan hamkorlikda ishlamaydigan o`qituvchi.

8. Insonga qoniqish baxsh etadi ...

A. Hech kim halaqit bermaydigan sharoitda ishlash.

B. Boshqalardan yangi axborotni olish.

V. Boshqalarga foyda keltirish.

9. O`qituvchining asosiy vazifasi ...

A. Boshqalar oldidagi burchiga sodiq odamlarni tarbiyalash.

B. Odamlarni mustaqil hayotga tayyorlash.

V. Boshqalar yordamidan foydalana oladigan odamlarni voyaga etkazish.

10. Agar guruh oldida biror muammo turgan bo`lsa, men ...

A. Bu muammoning boshqalar tomonidan hal etilishini kutib turishni maqul ko`raman.

B. Bu muammoni boshqalar yordamisiz mustaqil hal etishga harakat qilaman.

V. Bu muammoni hal etish uchun harakat qilayotganlarga yordam berishga intilaman.

11. Men juda yaxshi o`qigan bo`lardim, agar o`qituvchi ...

A. Menga individual yondashganda.

B. Menga boshqalardan yordam olish uchun sharoit yaratib berganda.

V. Guruh muvaffaqiyatiga xizmat qiladigan tashabbuslarimni qo`llab-quvvatlaganda.

12. Eng o`giri ...

A. Sen mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erisha olmasliging.

B. Sen guruhda o`zingni keraksiz odamdek his etishing.

V. Atrofdagilarning senga yordam bermasligi.

13. Hamma narsadan ko`ra men ko`proq ...

A. Do`stlarim yordami bilan erishgan muvaffaqiyatlarimni qadrlayman.

B. Mening hissam ham bor bo`lgan umumiy muvaffaqiyatni qadrlayman.

V. O`z mustaqil harakatlarim bilan erishgan muvaffaqiyatimni qadrlayman.

14. Men ...

A. Hamkorlikda faoliyat yuritishga o`rgangan jamoada ishlashni xohlardim.

B. O`qituvchi bilan individual ishlashni xohlardim.

V. O`z sohasining etakchi mutaxassislari bilan ishlashni xohlardim.

Natijalarni qayta ishlash.

Natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi kalitdan foydalaniladi.

### Kalit

Guruhni idrok etish tiplari		
Individualistik	Kollektivistik	Pragmatik
1V	1B	1A
2A	2V	2B
3B	3V	3A
4B	4A	4V
5B	5V	5A
6B	6A	6V
7B	7A	7V
8A	8V	8B
9B	9A	9V
10B	10V	10A
11A	11V	11B
12A	12B	12V
13V	13B	13A
14B	14A	14V
Jami:	Jami:	Jami:

---

1V	1B	1A
2A	2V	2B
3B	3V	3A
4B	4A	4V
5B	5V	5A
6B	6A	6V
7B	7A	7V
8A	8V	8B
9B	9A	9V

10B	10V	10A
11A	11V	11B
12A	12B	12V
13V	13B	13A
14B	14A	14V
Jami:	Jami:	Jami:

---

1V	1B	1A
2A	2V	2B
3B	3V	3A
4B	4A	4V
5B	5V	5A
6B	6A	6V
7B	7A	7V
8A	8V	8B
9B	9A	9V
10B	10V	10A
11A	11V	11B
12A	12B	12V
13V	13B	13A
14B	14A	14V
Jami:	Jami:	Jami:

---

1V	1B	1A
2A	2V	2B
3B	3V	3A
4B	4A	4V
5B	5V	5A
6B	6A	6V
7B	7A	7V
8A	8V	8B
9B	9A	9V
10B	10V	10A
11A	11V	11B
12A	12B	12V
13V	13B	13A
14B	14A	14V
Jami:	Jami:	Jami:

---

## **O`quvchi nerv tizimining xususiyatlarini o`rganish metodikasi**

Mazkur metodika o`quvchilarning nerv tizimiga xos xususiyatlarni o`rganishga mo`ljallangan bo`lib, oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi nazariy qarashlarga asoslangan (metodika A.A. Polejaevning takliflari asosida ish-lab chiqilgan). Metodikaning stimuly materialini har xil temperament tiplariga ega bo`lgan odamlarning xulq-atvoriga oid sifatlarini ifodalovchi hukmlardan tashkil topgan. Sinaluvchi bu hukmlar bilan tanishib chiqqach, ular orasidan o`z odatiy xulq-atvorini aks ettiruvchi hukmlarni tanlashi kerak.

Sinaluvchiga ko`rsatma: «Sizga malumki, turli hayotiy vaziyatlarda odam o`zini har xil tutadi. Quyida inson xulq-atvorining har xil shakllarini tasvirlovchi hukmlar keltirilgan. Barcha hukmlar to`rtta-to`rttadan o`n ikki bandga ajratilgan. Siz bu hukmlar bilan tanishib chiqib, har bir band o`z ichiga olgan to`rt hukm orasidan o`ziningizning odatdagi xulq-atvoringizga ko`proq mos keladigan bitta hukmni tanlang va javob varaqasida uning tartib raqamini belgilab qo`ying».

### **Metodika matni.**

- 1.1. Kayfiyati barqaror emas, tez-tez o`zgarib, shodlik o`rnini g`am egallashi hech gap emas.
- 1.2. Kayfiyati doimo barqaror, bir tekis.
- 1.3. Kayfiyati odatda ko`tarinki, quvnoq.
- 1.4. Kayfiyati odatda mayyus, g`amgin.
- 2.1. Xatti-harakatlari faol, harakatchanligi yuqori.
- 2.2. Xatti-harakatlari vazmin, imo-ishoralari sekinlashgan.
- 2.3. Xatti-harakatlari ishonchsiz, ovozi past va kuchsiz.
- 2.4. Xatti-harakatlari shoshqaloq, keskin.
- 3.1. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ham, maqsadga intilaveradi, engil yo`lni qidirmaydi.
- 3.2. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda qattiq siqiladi, ishga qaytadan kirishishni xohlamaydi.
- 3.3. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda maqsadga erishishning osonroq yo`llarini qidirishga kirishadi.

- 3.4. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda uni tez orada unutadi va har kanday yangi ishga kirishadi.
- 4.1. Tez toliqadi, xayol surishni yaxshi ko`radi.
- 4.2. Berilib ishlaydi, lekin shijoati uzoqqa cho`zilmay ishni yarmidan tashlab yuborishi mumkin.
- 4.3. Ishga astoydil kirishadi va nima bo`lsa ham uni oxirgacha etkazishga intiladi.
- 4.4. Har qanday ishga, bir vaqtning o`zida bir necha ishga qo`l urishi mumkin.
- 5.1. Muloqotda o`zini emocional tutadi, baland ovoz bilan kulishi, pantomimikadan faol foydalanishi mumkin.
- 5.2. Doim atrofdagilar bilan muloqotda bo`lishga, boshqalar kayfiyatini ko`tarishga harakat qiladi.
- 5.3. Muloqotda o`zini kamtarona va mulohazali tutadi.
- 5.4. Muloqotda bo`lishga intilmaydi, quvnoq davralarni yoqtirmaydi, ammo yaqin do`stlar bilan tez-tez muloqot qilib turishni xush ko`radi.
- 6.1. Tashvishida ham, shodligida xam boshqalar bilan dardlashadi.
- 6.2. Notanish odamlar bilan hasratlashib o`tirmaydi.
- 6.3. O`zining barcha hissiyotlarini yolg`izlikda kechirishga odatlangan.
- 6.4. Hissiyotlarni jo`shqin kechiradi, hatto, umuman notanish odamga o`z kechinmalari haqida gapirib berishi mumkin.
- 7.1. Tanbehni xotirjamlik bilan kabul qiladi, tortishmaydi, lekin aynan bir xatoni takrorlashi mumkin.
- 7.2. Tanbehga norozi bo`ladi, tortishadi, o`zini oqlash uchun bahona qidiradi.
- 7.3. Tanbehni diqqat bilan tinglaydi, xatolarini tezda to`g`rilashga harakat qiladi.
- 7.4. Har qanday tanbehdan qattiq xafa bo`ladi, qattiq tasirlanadi.
- 8.1. Biror ishdan so`ng boshqasiga tezda kirisha olmaydi, o`zini xorgin sezadi.
- 8.2. Sa`galga charchamaydi-yu, lekin bir ishdan boshqasiga ko`chishi qiyin kechadi.
- 8.3. Avvalgi ishni yakunlanmagan holda tashlab, yangi ishga kirishishi mumkin.
- 8.4. Qiyin vazifani bajarib bo`lgach, tezda boshqa ishga kirishib ketishi mumkin.
- 9.1. Dard-alamni jo`shqin kechiradi, lekin uni tez unutadi.
- 9.2. Dard-alamni oson kechiradi va tezda uni unutadi.
- 9.3. Dard-alamni og`ir kechiradi, uni uzoq vaqt yodidan chiqarmaydi.

- 9.4. Dard-alamni atrofdagilarga ko`rinmasa ham ancha o`gir kechiradi.
- 10.1. Kulgu va hazilkashlikni yoqtiradi, birov uning ustidan hazillashsa xafa bo`lmaydi.
- 10.2. Kam hazillashadi, hazildan tez-tez xafa bo`lib turadi.
- 10.3. Yaxshi hazilni sevadi va qadrlaydi, lekin birovning ustidan uyushtirilayotgan hazilda qatnashmaslikni maqul ko`radi.
- 10.4. Odamlarga yoqishi yoki yoqmasligini o`ylamay ular ustidan hazillashib turadi.
- 11.1. Ishga kirishishdan oldin hammasini puxta o`ylab chiqib, rejalashtiradi, bordi-yu rejalar buzilsa, yangi sharoitga ko`nika olmaydi.
- 11.2. Har kanday ishga oqibatini o`ylamay kirishadi, sharoit o`zgarsa, yangi sharoitga oson moslashib ketadi.
- 11.3. Ish rejasini tez, hatto, ish davomida ham tuzishi, shuningdek, ish sharoiti o`zgarishi bilan yangi sharoitga qiynalmay ko`cha olishi mumkin.
- 11.4. Qatiyatsizligi tufayli ish rejasini qiyinchilik bilan tuzadi, ko`pincha tayyor rejadan foydalanadi, sharoit o`zgarib qolsa, nima qilishini bilmay qoladi.
- 12.1. Nozik hissiyotlar, ayniqsa, estetik taassurotlar sohasida juda tasirchan.
- 12.2. Taassurotlarni o`zgartirishga intilmaydi, o`zini odatdagi sharoitda yaxshiroq his etadi.
- 12.3. Yorqin taassurotlarni, ularning tez-tez almashinishini yoqtiradi-yu, lekin bunga jon-jahdi bilan intilmaydi.
- 12.4. Taassurotlarni o`zgartirishga faol harakat qiladi, mehmonga, muzey, ko`rgazma va shu kabi joylarga tez-tez borib turadi.

### **Natijalarni hisoblash.**

Natijalarni hisoblash uchun javob varaqasi (1-ilova) ning har bir ustuni bo`yicha nechtadan hukmning tartib raqamiga belgi qo`yilgani aniqlanadi. Qaysi ustunda eng ko`p miqdorda belgi qo`yilgan bo`lsa, sinaluvchida ushbu ustunga mos keluvchi temperament tipi etakchilik qilishi haqida xulosa chiqariladi.

#### Temperament tiplarining psixologik tavsifi

Sangvinik – baland ovoz bilan kulish; faol mimika hamda pantomimika; hissiyotlarning yuzda yorqin ifodalanishi; quyi darajadagi senzitivlik, yuqori darajadagi harakatchanlik; yangi ishga tez kirishish; topqirlik; hissiyot va qiziqishlarning tez o`zgarishi; notanish odamlar bilan tez chiqishish; yangicha sharoitga tez moslashish; bir ishdan ikkinchisiga tez ko`chish.



Xolerik - quyi darajadagi sezitivlik; yuqori darajagi faollik; sabrsizlik va jizzakilik; tutaquvchanlik; rigidlik; qatiyatlik; diqqatni ko`chirishga qiynalish; qiziqishlar va intilishlarning barqarorligi.

Flegmatik- quyi darajadagi sezitivlik; emocionallikning sustligi; xafa qilish, kuldirish, jahlni chiqarishning qiyinligi; bosiqlik va vazminlik; mimika harakatlarning sustligi; harakatlarning ifodasizligi; sabr-toqatlik; diqqatni ko`chirishga qiynalish; yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashish.

Melanxolik – yuqori darajadagi sezitivlik; arzimagan narsadan tasirlanish; xafalanuvchanlik; reaktivlikning sustligi; mimika va harakatlarning ifodasizligi; past ovozda gapirish va yig`lash; darsda kam qo`l ko`tarish; tez charchash; diqqatning tez ko`chishi va beqarorligi.

Eslatma №1. Mazkur metodikani ham guruhiy, ham individual shaklda o`tkazish, undan muayyan o`quvchi haqida o`qituvchining ekspert fikrini bilishda foydalanish mumkin.

Eslatma №3. Mazkur metodika orqali o`quvchining nerv tizimiga xos xususiyatlarni o`rganishda shuni etiborga olish kerakki, bir odamning xulq-atvorida ikki xil, hatto, uch xil temperamentga xos alomatlar kuzatilishi ham mumkin (biroq bitta odamda to`rt xil tip belgilari bo`lishi mumkin emas).

### Kalit

№	Sangvinik	Flegmatik	Xolerik	Melanxolik
1	1.3	1.2	1.1	1.4
2	2.1	2.2	2.4	2.3
3	3.4	3.1	3.3	3.2
4	4.4	4.3	4.2	4.1
5	5.2	5.4	5.1	5.3
6	6.1	6.3	6.4	6.2
7	7.3	7.1	7.2	7.4
8	8.4	8.2	8.3	8.1
9	9.2	9.4	9.1	9.3
10	10.1	10.3	10.4	10.2
11	11.3	11.1	11.2	11.4
12	12.4	12.2	12.3	12.1
Σ				

## 1-Ilova

## Javob varaqasi

F.I. \_\_\_\_\_

Nº				
1	1.3	1.2	1.1	1.4
2	2.1	2.2	2.4	2.3
3	3.4	3.1	3.3	3.2
4	4.4	4.3	4.2	4.1
5	5.2	5.4	5.1	5.3
6	6.1	6.3	6.4	6.2
7	7.3	7.1	7.2	7.4
8	8.4	8.2	8.3	8.1
9	9.2	9.4	9.1	9.3
10	10.1	10.3	10.4	10.2
11	11.3	11.1	11.2	11.4
12	12.4	12.2	12.3	12.1
Σ				

## Javob varaqasi

F.I. \_\_\_\_\_

Nº				
1	1.3	1.2	1.1	1.4
2	2.1	2.2	2.4	2.3
3	3.4	3.1	3.3	3.2
4	4.4	4.3	4.2	4.1
5	5.2	5.4	5.1	5.3
6	6.1	6.3	6.4	6.2
7	7.3	7.1	7.2	7.4
8	8.4	8.2	8.3	8.1
9	9.2	9.4	9.1	9.3
10	10.1	10.3	10.4	10.2
11	11.3	11.1	11.2	11.4
12	12.4	12.2	12.3	12.1
Σ				

## **Faollashtiruvchi proforientacion metodika** **«Kim rozi-yu Kim qarshi?»**

### Metodika haqida umumiy malumot.

Ushbu metodika faollashtiruvchi proforientacion metodika bo`lib, asosan, o`quvchilarni kasb tanlash bilan bog`liq muammolar haqida mulohaza yuritishga, kasb tashlash haqidagi suhbatlarga, individual konsultაციyalar olishga undash maqsadini ko`zlaydi.

Metodika 3 ta nisbatan mustaqil blokdan iborat:

- 1 – blok: o`quvchi yoqtirgan kasblar guruhini aniqlashga xizmat qiladi;
- 2 – blok: o`quvchining rivojlangan shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi;
- 3 – blok: o`quvchining kasbiy qadriyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

### Metodikani qo`llash tartibi.

1. o`quvchilarga tayyor javob varaqalari tarqatiladi yoki o`quvchilarning o`zi javob varaqalarini jizib oladilar (1- ilova).
2. o`quvchilarga ko`rsatma beriladi va metodika matni taqdim etiladi (2- ilova).

### Metodika natijalarini qayta ishlash.<sup>1</sup>

A. Javob varaqasining 2- va 4- ustunidagi sonlar (o`quvchilar qo`ygan ballar) oldiga «-» (minus) belgisi qo`yiladi.

B. har bir qator bo`yicha ballar miqdori javob varaqasining o`ng tarafidagi «Ballar yigindisi» ustuniga yozib qo`yiladi (natijada 20 ta kasb guruhiga muvofiq keluvchi 20 ta yigindi hosil bo`ladi).

C. Psixolog o`gil va qiz bolalarga tegishli meyorlarni aytib turadi (3-ilova), o`quvchilar ularni «Meyorlar» ustuniga yozib qo`yadilar.

D. Psixolog kasblar guruhlarini «Kasblar guruhlari» ustuniga (1- blokda), psixologik xususiyatlarni «Psixologik xususiyatlar» ustuniga (2- blokda), kasbiy qadriyatlarni «Kasbiy qadriyatlar» ustuniga (3-blokda) aytib yozdirib qo`yadi.

E. o`quvchilar o`zlari to`plagan ballar yigindisi meyorlarga qanchalik yaqinligini aniqlaydilar.

- Agar ballar yigindisi meyorlar chegarasi ichida bo`lsa (yigindi -2 bo`lsa-yu, meyorlar chegarasi -6 dan +2 gacha bo`lsa), «Natijalar» ustuniga «0» Raqamii yozib

---

<sup>1</sup> Uchchala blokning natijalari bir xil qayta ishlanadi.

qo`yiladi. Bu esa tegishli kasblar guruhiga birozgina qiziqish borligi, tegishli xususiyat birozgina rivojlanganligi, tegishli qadriyatlarga etiborli ekanlikni bildiradi (masalan, tegishli kasb bilan shug`ullanish istagi yo`q-ku, lekin uni yoqtirmaslik ham unchalik kuchli emas).

- Agar ballar yigindisi meyorlar chegarasidan tashqarida bo`lsa (masalan, yigindi +5 bo`lsa-yu, meyorlar chegarasi -4 dan +3 gacha bo`lsa), ballar yigindisi bilan meyorlarning eng katta (yoki eng kichik) miqdori o`rtasidagi farq topiladi (masalan, yigindi +5, meyorlar -4,+3 bo`lsa,  $(+5)-(+3)+2$  kabi, yigindi -5, meyorlar -4,+3 bo`lsa  $(-5)-(-4)+1$  kabi farq topiladi). Topilgan farq «Natija» ustuniga yozib qo`yiladi. Farq musbat ( + ) belgiga ega bo`lsa, o`quvchining tegishli kasblar guruhiga qiziqishi, unda tegishli xususiyatlarning rivojlanganlik darajasi, uning tegishli qadriyatlarga etibori yuqori, manfiy ( - ) belgiga ega bo`lsa, past bo`lib hisoblanadi.

### Uchchala blok natijalarining o`zaro muvofiqligini aniqlash.

1. Maxsus jadval olinadi (4-ilova). Bu jadvalda kasblar guruhlari (jadval qatorlari), psixologik xususiyatlar va kasbiy qadriyatlar (jadval ustunlari) o`rtasida mavjud bo`lgan o`zaro muvofiqlik va moslik ko`rsatilgan. Bunda «+» muvofiqlik borligini, «++» muvofiqlik yuqoriligini, «+++» muvofiqlik juda yuqoriligini bildiradi.

2. Uchta blok natijalari jadvalga kiritiladi.

- 1 – blok natijalari «Natija №1» ustuniga yozib chiqiladi (javob varaqasidan ko`chirib olinadi). Eng ko`p ball to`plagan kasblar guruhlari ajratiladi (biror belgi, rang va h.bilan).

- 2 – blok natijalariga ko`ra eng ko`p ball to`plagan psixologik xususiyatlar ajratiladi (biror usul bilan). Ajratilgan qator va ustunlarning kesishgan joylaridagi «+» belgisining soni o`zaro qo`shib chiqiladi, yigindi «Natija №2» ustuniga yoziladi. Bu erdagi ko`rsatkichlar o`quvchining psixologik xususiyatlari uni qiziqtirgan kasblarga qanchalik mos kelishini ko`rsatadi.

- 3 – blok natijalariga ko`ra eng ko`p ball to`plagan qadriyatlar ajratiladi (biror usul bilan). Ajratilgan qator va ustunlarning kesishgan joylaridagi «+» belgisining soni o`zaro qo`shib chiqiladi, yigindi «Natija №3» ustuniga yoziladi. Bu erdagi ko`rsatkichlar o`quvchini qiziqtirgan kasblar unga o`z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etish uchun qanchalik yo`l ochib berishini ko`rsatadi.

3. Natijalar ustunlaridagi ballar o`zaro qo`shib chiqiladi. Umumiy natija «Yakuniy natija» ustuniga yozib qo`yiladi. Bu erdagi ko`rsatkichlar o`quvchini qiziqtirgan kasblar bilan uning psixologik xususiyatlari va kasbiy qadriyatlarini o`rtasidagi muvofiqlik darajasini aks ettiradi.

2- ilova  
«Kim rozi-yu Kim qarshi №1»

Ko`rsatma: «hurmatli ishtirokchilar, ushbu blok orqali biz qaysi kasblarni ko`proq yoqtirishingizni aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun o`z kasbiy faoliyatingizda quyidagilarni bajarishga qanchalik tayyorligingizni 0-5 ballar doirasida baholashingiz kerak bo`ladi. Bunda tegishli harakatni bajarishga bo`lgan ahdingiz qanchalik yuqori bo`lsa, unga shunchalik yuqori ball qo`yishingiz lozim».

1. Sayohat qilish, dunyoni ko`rish, yangi-yangi odamlar bilan uchrashish.
2. Nomalum narsalarni aniqlash uchun biror tajribani qayta-qayta o`tkazish.
3. Kasal va keksalarning nolalarini tinglash, ularga shirin so`z bilan yordam berish.
4. Turli tovarlarni va xizmatlarni iloji boricha qimmatroqqa sotishga harakat qilish.
5. Butun kuch - quvvatni xudoga xizmat qilishga sarf etish.
6. Zamonaviy texnik asboblarni bilan ishlash, ularning tuzilishini va ularni ishlatish qoidalarini bilish.
7. Boshqalar hayotini saqlab qolish uchun o`z hayotini xavf ostiga qo`yish.
8. Tomoshabinlar oldida sahnada o`ynash, radioda eshittirish olib borish.
9. Turli buyumlarni yuqori darajadagi aniqlik bilan sifatli qayta ishlash.
10. Ko`proq boshqa odamlar haqida emas, o`zi haqida o`ylash.
11. Yaxshi daromad evaziga er osti va er usti inshootlarini bunyod etish.
12. Narsalarni arzonroqqa sotib olish va qimmatroqqa sotishga intilish.
13. Butun o`zligingizni buyuk sanat asarida namoyon etish.
14. Butun oila azolarini sevish.
15. Baxtga erishish uchun kuch, zo`ravonlik va ayyorlikni ishlatish.
16. Hamma narsani qat'iy qonun - qoidalarga ko`ra bajarish va o`zgalarning buyruq hamda qonunlarga bo`ysunishini nazorat qilish.
17. Hech qachon hech qaerga shoshmasdan, ko`ngilga siqqanicha dam olish.

18. O`simlik va hayvonlarni parvarish qilish (shu jumladan, xayvonlarning axlatini tozalash).
19. Bolalarni yaxshiq ko`rish va ularga olamni tushunishga yordam berish.
20. Avtomobil, avtobus, trolleybus, tramvayni hayday olish va ularni tuzata olish.
21. Tinch-osuda muhitda ortiqcha jismoniy harakatlarsiz ishlash.
22. Doim o`z hamkasblarining fikriga qo`shilish, ular bilan bahslashmaslik.
23. Faqat katta miqdordagi pul evaziga tibbiy yordam ko`rsatish.
24. Bir qarashdayoq yoqtirmay qolgan odamlardan nafratlanish.
25. Xudoning ehsoniga orqa qilmay o`z kuchlariga ko`proq ishonish.
26. Ishdagi kamchiliklar uchun masuliyatni hamkasblarga yuklash.
27. Hamma o`gri, poraxo`r, fohshalarni otib tashlash.
28. Ishxonada qalbaki tabaasum bilan kulmaslik, qalbaki ko`z yoshlar bilan yiglamaslik, yani o`zini tabiiy tutish.
29. Oliy goyalar haqida o`ylab, turmushdagi mayda-chuydalarni unutish.
30. Qonunlardagi kamchiliklardan ayyorlik bilan foydalanib, shaxsiy maqsadlarga erishish.
31. Sogliqni asrash uchun ogir jismoniy ishlarni hamkasblarga qoldirish.
32. Ishning faqat qilingan qismi uchun haq olish.
33. Oddiy, kichkina ishchi bo`lib, tinch-osuda ish bilan shugullanish.
34. Butun kuch - quvvatni faqat ish uchun sarflash.
35. Olijanob, odamshinavanda, mehribon inson bo`lish va umumiy meyorlarga rioya qilish.
36. Tavakkal qilish, eskirib qolgan qoidalarni buzishdan qo`rqmaslik.
37. har qanday sharoritda ham urushmaslik, o`grilik va tilanchilik qilmaslik.
38. Xayvonlardan go`sht va teri olish maqsadida foylanishlariga qarshi kurashish.
39. Hammani qo`rqitib qo`yish va hurmat qilishga majburlash.
40. Mashina haydaganda yo`lda hammadan oldinga o`tib olish, boshqalarni quvib o`tish.
41. Oila va yaqinlardan uzoqda ko`p ishlash.
42. Sabr-toqat bilan biror sohaga oid nazariy va amaliy bilimlarni o`rganish.
43. Qon, har xil jarohatlar va yara-chaqalarni ko`rganda, qo`rqmaslik va bu bilan

faxrlanish.

44. Qo`ldan kelganicha odamlarga o`zaro munosabatimizda qulayliklar yaratish.
45. Qonun-qoidalarga rioya etib, boshqalarga namuna bo`lib yashash.
46. Yangi-yangi asbob-uskunalarni yasash, ularni yaxshilash va takomillashtirish.
47. Har qanday qonunbuzarlik, zo`ravonlik va adolatsizlikka qarshi chiqish.
48. Boshqa odamlarning qiyofasiga kirish, yani har xil rollarni o`ynash.
49. Murakkab apparatlar, asbob uskunalarni sozlash va tamirlash.
50. Qonunlarni yaxshi bilish va ularga rioya etish.
51. O`g`ir sharoitlarda (suv ostida, konda, kosmosda va h.) ishlash.
52. Bozordagi vaziyatni, savdo-sotiq masalalarini hammadan yaxshi bilish.
53. Barcha narsalardagi go`zallikni ko`ra bilish, odamlarga olamning go`zalligini tushuntirib etkazish.
54. Uy ho`jalik ishlari bilan ko`p (hatto, bayram va dam olish kunlarida ham) shu`g`ullanish.
55. Guruhdagi o`z o`rnini bilish, guruhning yozilmagan ichki qoidalariga bo`ysunish.
56. Qonunlarni buzmaganda odamlar hayotini yaxshilash.
57. Biror kimsasiz orolda xudo bergan nematlardan baxramand bo`lib yashash.
58. Chorva, parranda va baliqlarni go`sht, yo`g, jun va boshqa mahsulotlarni ko`p beradigan qilib boqish.
59. Boshqalarga o`rgatish uchun ko`p narsalarni bilish.
60. Yo`lda doim xushyor va ziyrak bo`lish, hamma o`zgarishlarni tez payqay olish.
61. Qanday ish bilan shu`g`ullanishdan qat`iy nazar doim o`z vaqtida ovqatlanish.
62. Ishda faqat tushunarli va oddiy narsalar haqida o`ylash.
63. Ishxonada faqat chiroyli va kelishgan odamlar bilan suhbatlashish.
64. Odamlarga tekin xizmat qilish.
65. Engil-elpi hayot kechirish: xohlasa ichish, xohlasa nikohdan tashqari munosabatlarga kirishish (bazi kasblarda bu juda zarur).
66. Ko`zni asrab kompyuterda kamroq ishlash.
67. «Vijdon-pijdon» degan narsalarni unutib odamlardan pora va sov`ga-salomlar olish.
68. Ishda hamma narsani o`z bilganicha qilish.

69. Ishxonada tez-tez tanaffus, choyxo`rlik qilib turish.
70. Maqsad sari harakatlanishda raqiblarni shavqatsiz sindirib, yanchib o`tish.
71. Ishxonada so`kinib urushadigan odamlarga tanbeh berish.
72. Kasal va muhtojlarga begaraz moddiy yordam berish.
73. Fikr yuritganda mantiq qoidalariga rioya qilish.
74. Pullarni qimmatbaho kiyimlar va maishatga sarf etish.
75. Ishxonada baliq boqish, gul o`stirish.
76. Faqat yoqtirgan odamlar bilangina ishlash.
77. Ishxonada o`zini kelishagan, odob va farosatli odam sifatida namoyon etish.
78. Faqat ilhom kelgandagina ishlash.
79. Fol, astrologik bashoratlar va taqvimlarga ishonish.
80. Ish vaqtida ishdan chalg`ib, biror yoqimli mavzuda suhbatlashish.
81. Eng murakkab vaziyatlardan ham chiqib keta olish.
82. Xatolarni tan olish, tan olganlikni hamkasblarga va do`stlarga ko`rsatish.
83. So`g`lom turmush tarzini targ`ib qilish(odamlarni chekmaslik, ichmaslik va h.larga davat qilish).
84. Ishxonada har qaysi odamga (hatto, kayfdagi odamga ham) tabassum bilan murojaat qilish.
85. Dindor bo`lib ishlash bilan pul topish.
86. Murakkab hisob-kitoblarni bajarish, kompyuterlar uchun dasturlar tuzish.
87. Qo`rqmasdan kuchli va xavfli jinoyatchilar bilan kurashga kirishish.
88. Ovozni, butun tanani, kayfiyatni to`liq boshqarish, mashqlar vositasida bu qobiliyatni rivojlantirish.
89. Turli apparatlar va mexanizmlar bilan ishlashda texnika havfsizligiga rioya etish.
90. Odamlarga yoqishni, ularning etiboriga tushishni bilish.
91. Jismonan kuchlilikdan baxtiyor bo`lish.
92. Katta daromadni qo`lga kiritish yo`lida hech narsadan tap tortmaslik.
93. Zerikarli narsalarni (arzimaydigan narsa bo`lsa ham) qiziq va jonli qilib tushuntirish.
94. Bir vaqtning o`zida bir necha ishni bajara olish.



95. Maqsadga erishish uchun tavakkalchilik qilish.
96. Odamlarning ishini tashkil etish, ularni boshqarish.
97. Xavf-xatarni tez payqash va undan vaqtida qochib qolish.
98. Tez-tez ochiq havoda (har qanday ob-havoda ham) ishlab turish.
99. Zo`rlik va zo`ravonlik bilan emas, balki shirin so`z va ezgu amal bilan hurmat qozonish.
100. Har xil boshliqlar va nazoratchilar bilan tez til topisha olish.

«Kim rozi-yu Kim qarshi №2»

Ke`rsatma: «hurmatli ishtitrokchilar, Ushbu blok orqali sizga xos ayrim psixologik xususiyatlarni aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun quyidagi takidlar siz uchun qanchalik xos ekanini 0-5 ballar doirasida baholashingiz kerak bo`ladi. Bunda tegishli takid sizga qanchalik ko`proq xos bo`lsa, unga shunchalik yuqoriroq ball qo`yishingiz lozim».

1. Men o`zimdanda keyin hech qachon axlat qoldirmayman.
2. Men zerikarli va yoqimsiz ishlarni bajarishga ham o`zimni bemalol majbur qila olaman.
3. Men turli sohalarga oid o`z bilimlarimni ko`rsatishga tayyorman.
4. Men uchun yuqori darajali aniqlik bilan harakat qilish osondir.
5. Men turli mantiqiy va matematik masalalarni yaxshi echa olaman.
6. Men ishda boshqalar menga nisbatan tez charchab qolayotganligiga ko`p marta guvoh bo`lganman.
7. Men atrofdagilarga tashqi ko`rinishim yoqishini bilaman.
8. Men har qanday davrani ham hazil-mutoyiba bilan qizdira olaman.
9. Men doim so`zimning ustidan chiqishga harakat qilaman.
10. Atrofdagilar menda sanatga nisbatan qobiliyat bor, deb hisoblashadi.
11. Men har qanday ishni o`z foydamga hal eta olaman, boshqalar esa bunga hasad qiladi.
12. Men axmoq va yaramas odamlarni ham odam deb hisoblayman hamda ular bilan ham kelishish mumkin deb o`ylayman.

13. Men ishchini uning saranjom-sarishtaligiga qarab emas, balki uning keltirayotgan foydasiga qarab baholash kerak, deb hisoblayman.
14. Men hech qachon zerikarli va qiziqsiz narsalar bilan shugullanmayman.
15. Men har xil faktlar, malumotlar bilan boshimni o'g'ritmaslikka harakat qilaman.
16. Men turli mayda-chuyda harakatlarni qilishni umuman yoqtirmayman.
17. Atrofdagilar fikricha, mantiqiy fikr yuritish men uchun xos emas.
18. Men jismoniy mehnat olijanob insonni kamsitadi deb hisoblayman.
19. Manaviy go'zallik birinchi o'rinda bo'lgani uchun men chiroyli kiyinish va bezanishga etibor bermayman.
20. Men bir necha bor atrofdagi odamlar gaplarimni qiziqmay eshitayotganliklarini sezib qolganman.
21. Ochi'gini aytganda, meni begona odamlarning azob-uqubatlari qiziqtirmaydi (axir men ham vaqti kelganda qiynalغانman).
22. Men sanatni unchalik yaxshi tushunmayman, lekin bu bilan hech qaerim kam bo'lib qolayotgani yo'q.
23. Agar menga yaxshi sharoit yaratib berilmasa, men tuzukroq ishlay olmayman.
24. O'g'ir kunlarimda menga yordam beradigan do'stlarim va yaqinlarim ko'p.
25. Atrofdagilar meni xaddan-tashqari saranjom-sarishta, hatto, «ozodaoyim» deb hisoblaydilar.
26. Agar zarurat tu'g'ilsa, men kuch ishlatib birovni o'zim xohlagan narsaga majbur qila olaman.
27. Men doim o'zim uchun qiziq bo'lgan narsalarni yozib olaman.
28. Ko'pchilik fikricha, mening harakatlanish tezligim juda yuqori.
29. Odatda men texnik asbob-uskunalarni ishlatish qoidalarini tez tushunib olaman.
30. Men o'g'ir va uzoq davom etadigan ishlarni ham bajara olaman.
31. Mening tashqi ko'rinishimdan hech qanday etirozim yo'q.
32. Men ko'pincha notanish va yangi odamlar bilan tez aloqa o'rnataman.
33. Men shuni bilamanki, kimdir meni xaddan tashqari «patriot» deb hisoblaydi.
34. Bazida men biror shoir, yozuvchi, bastakor yoki rassom asarda nima demoqchi bo'lganini yaxshi tushunganday bo'laman.
35. Men eng o'g'ir vaziyatlarda ham yig'i-sig'i qilmayman.

36. Ayrim hollarda mening maslahatlarim do`stlarimga juda qo`l kelgan.
37. Bazida men kichkina kamchilikka yo`l qo`yib, keyin ishni boshidan boshlashimga to`g`ri kelgan.
38. Atrofdagilar men bilan kelishish oson deb hisoblaydilar.
39. Menimcha, hamma narsani eslab qolish shart emas, chunki yaxshisi bilmagan narsani birovdan so`ragan maqul, deb hisoblayman.
40. Bazida men qo`pol va beso`naqay bo`lib qolaman.
41. Har xil hisob-kitoblarni o`lguday yomon ko`raman .
42. Uzoq muddatli mehnat meni charchatib qo`yadi.
43. Atrofdagilarning tashqi ko`rinishimga yuqori baho bermasligi meni unchalik qiziqtirmaydi.
44. Ko`pchilik meni g`amgin va odamlar bilan chiqisha olmaydigan inson deb biladi.
45. Menimcha boshqalarga yordam berish ularning o`ziga ziyon etkazadi, chunki har kim muammolarini o`zi hal qilishi kerak.
46. Menimcha, shoirlar, rassom va bastakorlar g`irt omadsiz tekinxo`rlar bo`lib, konkret hech narsa qila olmaydilar.
47. Oldimda men hurmat qiladigan va kuchli odam bo`lsa, ishlarni yaxshi bajara olaman.
48. Men vaqti kelganda, tajribasiz va beso`naqay odamlar ustidan kulib turaman.
49. Kamdan-kam hollarda bajarib bo`lgan ishinni boshidan qilishga to`g`ri keladi.
50. Bazida shuni sezib qolamanki, atrofdagilar men bilan bahslashishdan qo`rqadi.
51. Atrofdagilar turli malumotlarni olish uchun menga tez-tez murojaat qilib turadi.
52. Agar xohlasam, aniq, tez, chaqqon va xatolarsiz harakat qila olaman.
53. Men kompyuter bilan ishlashda hech qanday muammoga duch kelmayman.
54. Jismoniy mehnatdan keyin negadir miyam yaxshiroq ishlay boshlaydi.
55. Bazida atrofdagilar mening ichki xususiyatlarimdan ko`ra tashqi ko`rinishimga etibor berishi menga yoqmaydi.
56. Bazida odamlar o`z dard-xasratlarini men bilan bo`lishadilar.
57. Agar birov nohaq yaxshi odamni hafa qilsa men jim o`tira olmayman.
58. Bazida men boshqalarga umuman yoqmaydigan narsalaradan ham zavqlanishga tayyorman.

59. Men qiyin vaziyatlardan chiqib ketish bo'yicha ancha «usta» bo'lib qoldim.

60. Menimcha, birovning yordamisiz ham hayotda o'z yo'limni topa olaman.

### «Kim rozi-yu Kim qarshi №3»

Ko'rsatma: «hurmatli ishtirokchilar, ushbu blok orqali sizning qanday kasbiy qadriyatlarga tayanishingizni aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun quyidagi takidlar sizning qarashlaringizga qanchalik mos ekanligini ularga 0-5 ballar doirasida baho berish bilan ko'rsatishingiz kerak bo'ladi. Bunda takid sizning qarashingizga qanchalik mos kelsa unga shunchalik yuqori ball qo'yishingiz lozim».

1. Katta miqdordagi pul to'llansagina ishni yaxshi bajarish mumkin.
2. Birovning seni boshqarishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.
3. Eng qiziqarli ish ham sog'liqdan ayirilishga arzimaydi.
4. Bir xil, bir tekis, sekin davom etuvchi ishdan odamning «tomi» ketib qolishi hech gap emas.
5. Yuksak go'yalar haqida fikr yuritish inson uchun eng qiziq va munosib ishdir.
6. Birov bilan bir og'iz gaplasha olmaydigan muhitda ishlash o'limdan battar.
7. Boshqalarning menga va ishimga biroz havas qilishi juda yoqimlidir.
8. Ishning atrofdagi odamlarga quvonch va foyda keltirishi juda muhimdir
9. Boylik odamdagi olijanoblikni, insoniylikni o'ldiradi.
10. Hech kimning odamlarga buyruq berishga haqqi yo'q, xar kim o'zi qaror qabul qilishi kerak.
11. Doim o'z sog'liging haqida o'ylayversang, erta o'lib ketasan.
12. Faqat tinch-osuda ishdagina haqiqiy ijod bilan shugullanish mumkin.
13. Haqiqiy baxt bilim olishda emas, balki maishatdadir, shuning uchun aqlli odamlar kamdan-kam baxtli bo'ladi.
14. Birov doim ishing haqida savol beraversa, «jinni» bo'lib qolish hech gap emas.
15. Obro'li korxonalar va tashkilotlarda chaqimchilik, giybatchilik, hasadga o'xshash salbiy holatlar ko'p bo'ladi.
16. Ishdagi eng muhim narsa uning odamlarga foydasi emas, balki unga qancha haq to'lanishidir.
17. Katta miqdordagi pul evaziga har qanday ishni qilish mumkin.
18. Barcha so'zsiz buyruqlaringni bajarsa qanday yaxshi.

19. Asablarni charchatib, sogliqni ketkazib biror ishni astoydil bajargandan ko`ra unindan beri qilgan afzalroq.
20. Ishda tavakkalchilik va xavf-xatar bo`lmasa, u o`lgunday zerikarli bo`lib qoladi.
21. Faqat pastkash odamgina o`z baxti haqida xayol surishdan qo`rqadi.
22. Suhbatda o`zing ishtirok etmasang ham boshqalarning suhbatini maroq bilan tinglash mumkin.
23. Inson iloji boricha aslzodalar qatoriga qo`shilib olishga harakat qilishi kerak.
24. Ish foydali bo`lsa, shunchaki odamlar minnatdorchiligi uchun ham ishlash mumkin.
25. Hayotda boylik va obro`-martabadan ham muhimroq narsalar bor.
26. Rahbarlik girt bevafo ish.
27. Agar odam doim sogligini o`ylaversa, tuzukroq pul topa olmaydi.
28. Kutilmagan hodisalar va tavakkalchilik ishga juda halaqit qiladi.
29. Faqat axmoqlargina qandaydir oliy qadriyatlar o`ylida hayotidan voz kechishga rozi bo`ladi.
30. Odam biror narsani bilmasa, uni birovdan so`ragandan ko`ra yaxshisi kitoblardan o`qib olgani maqul.
31. Har qanday ishda eng muhim narsa atrofdagilarning hurmati emas, balki shu ish bilan shugullanayotganligi sababli kishining o`zini – o`zi hurmat qilishidir.
32. Olijanoblik, insoniylik haqidagi gaplar girt yolgon, bular haqida ko`p gapiradigan odamlarning o`zi ko`proq o`z manfaatlarini o`ylaydilar.
33. Pul – bu inson muvaffaqiyatining asosiy belgisi.
34. Boshqalar hayotiga tasir ko`rsata olgandagina odam o`zini odamdek his etadi.
35. Sog-salomat bo`lish uchun kamroq ishlab, ko`proq davolanish kerak.
36. Qiyin vaziyatlardan golib bo`lib chiqishdan ham yoqimliroq narsa bo`lmasa kerak.
37. Televizor ko`rgandan ko`ra jiddiy – jiddiy kitoblarni o`qish qiziqarliroqdir.
38. Doim hamkasblarning sirlarini fosh etib, ularni tuzoqqa ilintirib ishlaganda, ishlash qiziqroq bo`ladi.
39. Taniqli bo`lishga intilmaydigan kishilarga odamning faqat rahmi keladi.

40.Odam uning mehnati boshqalarga juda kerakligini anglasa, bu odam uchun bundan kattaroq baxt yo`q.

1 – ilova.

«Kim rozi-yu Kim qarshi №1» metodikasi javob varaqasi.

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Sinf (guruh)\_\_\_\_ Maktab (kollej,licey)\_\_\_\_\_

Ballar								Ballar yigindi si	Meyorl ar	Natija	Kasb guruhlari
1		21		41		61		81			
2		22		42		62		82			
3		23		43		63		83			
4		24		44		64		84.			
5		25		45		65		85.			
6		26		46		66		86.			
7		27		47		67		87.			
8		28		48		68		88.			
9		29		49		69		89.			
10		30		50		70		90.			
11		31		51		71		91.			
12		32		52		72		92.			
13		33		53		73		93.			
14		34		54		74		94.			
15		35		55		75		95.			
16		36		56		76		96.			
17		37		57		77		97.			
18		38		58		78		98.			
19		39		59		79		99.			
20		40		60		80		100			

«Kim rozi-yu Kim qarshi №2» metodikasi javob varaqasi.

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Sinf(guruh) \_\_\_\_\_ Maktab(kollej,licey) \_\_\_\_\_

Ballar								Ballar yigindisi	Meyorlar	Natija	Psixologik xususiyatlar
1		13		25		37		49			
2		14		26		38		50			
3		15		27		39		51			
4		16		28		40		52			
5		17		29		41		53			
6		18		30		42		54			
7		19		31		43		55			
8		20		32		44		56			
9		21		33		45		57			
10		22		34		46		58			
11		23		35		47		59			
12		24		36		48		60			

«Kim rozi-yu Kim qarshi №3» metodikasi javob varaqasi.

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Sinf(guruh) \_\_\_\_\_ Maktab(kollej,licey) \_\_\_\_\_

Ballar								Ballar yigindisi	Meyorlar	Natija	Kasbiy qadriyatlar
1		9		17		25		33			
2		10		18		26		34			
3		11		19		27		35			
4		12		20		28		36			
5		13		21		29		37			
6		14		22		30		38			
7		15		23		31		39			
8		16		24		32		40			

3 – ilova.  
«Kim rozi-yu Kim qarshi №1»

Kasb guruhlari	qiz bolalar uchun meyorlar	o`gil bolalar uchun meyorlar
1.Sayohatlar:ekspediciyalar ishtirokchilari, dengizchilar.	+4,+7	+2,+6
2.Fan:nazariyotchilar, ekasperementatorlar, laborantlar	-1,+5	0,+4
3.Tibbiyot:shifokorlar, hamshiralar, sanitarlar	+1,+8	-1,+4
4.Savdo-sotiq, kommel-maishiy xizmat, servis	+5,+9	+4,+9
5.Diniy xizmat:domlalar, otinlar	-7,-1	-4,+1
6.Muxandislar, konstruktorlar, dasturchilar	+1,+5	0,+6
7. Qahramonlar:armiya, miliciya, xavfsizlik xizmatlari	+4,+8	+3,+5
8. Artistlar, professional sportchilar	0,+5	-1,+4
9.Ishchilar:chilangaralar, payvandchilar, bo`yoqchilar	-1,+3	+1,+5
10.Yuristlar:advokatlar, prokurorlar, sudyalar	-12,+8	+2,+7
11. O`g`ir sanoat:konchilar, metalurglar	-1,+7	+1,+6
12.Biznes,moliya:iqtiosdchilar,bugalter,tijoratchilar	+2,+6	+4,+9
13.Ijodkorlar:rassomlar, bastakorlar, yozuvchilar	+1,+8	0,+4
14.Uy xo`jaligi:bo`g`bon, qorovul, oshpaz	+1,+5	+1,+6
15.Jinoyatchilar:o`g`rilar, poraxo`rlar, qotillar	+6,+11	+6,+11
16.Boshqaruv:direktor, rektor, vazir	0,+6	+1,+4
17. Daydi-gadoylar:bomjlar, lo`lilar, gadoylar	+3,+7	+5,+9
18.Qishloq xo`jaligi:dehkonlar, veterenarlar, fermerlar	-3,+3	+5,+9
19. Pedagoglar, psixologlar: o`qituvchilar, tarbiyachilar	+4,+9	+3,+7
20. Shahar transporti: taksi, avtobus, traleybus, tramvay, metro	+1,+5	+2,+5

metodikasining taxminiy me`yorlari.



**«Kim rozi-yu Kim qarshi №2»  
metodikasining taxminiy meyorlari.**

Psixologik xususiyatlar	qiz bolalar uchun me'yorlar	o`gil bolalar uchun me'yorlar
1.Saramjon – sarishtalik	0,+8	+3,+7
2.Iroda, liderlik	-1,+2	+1,+4
3.Xotira, erudiciya	+5,+8	+2,+5
4.harakatlar koordinaciyasi	+5,+6	+4,+7
5.Mantiqiylik	-2,+4	0,+7
6.Chidamlilik	+4,+8	+2,+6
7.Tashqi ko`rinish	+2,+7	+3,+6
8.Muloqatchanlik	+8,+13	+5,+8
9.Axloqiylik, burch hissi	+4,+10	+4,+9
10.Go`zallik hissi	+4,+10	+1,+6
11.Tadbirkorlik, tashabbuskorlik	+4,+6	+2,+6
12.hayotiy tajriba	+3,+7	+1,+4

**«Kim rozi-yu Kim qarshi №3»  
metodikasining taxminiy meyorlari.**

Kasbiy qadriyatlar	qiz bolalar uchun meyorlar	o`gil bolalar uchun meyorlar
1.Pul, boylik	0,+7	+1,+7
2.hokimiyat	+,+8	+2,+6
3.Soglik	0,+7	0,+6
4.qizgin hayot, qiziqarli xodisalar	+8,+12	+4,+8
5.Manaviy yuksalish	+2,+8	-1,+3
6.Muloqot	+4,+6	+2,+5
7.Taniqlilik, obro`-etibor	+3,+7	+1,+4
8.Foydalilik hissi	0,+7	-1,+4

## 4 - ilova.

Uchta blokda natijalarning o'zaro muvofiqligini aniqlash jadvali.

Kasblar guruhlari	Psixologik xususiyatlar											Kasbiy qadriyatlar						Natija №3	Yakuniv natija					
	Natija №1	Saramion - sarishtalik	Iroda, diderlik	Xotira, erudiciya	Harakatlar	Mantiqiylik	Chidamlilik	Tashqi ko'rinish	Muloqotchanlik	Manavivat	Go'zallik hissi	Tadbirkorlik	havotiv tajriba	Natija №2	Dinl bo'zlik	hokimivat	So'g'lik			Oizgin havot	Manaviv vuksalish	Muloqot	Obro' - martaba	Fovdalilik hissi
Sayohatlar			++		+			+	+		+	+		+			+	+	+	+	+	+		
Fan		+	+	++		+		++	+	+				+	+			+	+	+	+	+		
Tibbiyot		+	+		++		+	++	+			+			+	+	+	+	+	+	+	+		
Savdo - sotiq		+		+	+		+	++			+	+		+	+		+		+	+	+	+		
Diniy xizmat			+	+			+	++	+			+		+	+	+		+	+	+	+	+		
Muhandislar		+		++	+	+		+			+			+	+	+		+	+	+	+	+		
Qahramonlar			++		+		+	+	+		+	+		+	+		+	+	+		+	+		
Artistlar				+	+		+	++		+		+		+	+		+	+	+	+	+	+		
Ishchilar		+	+	+	++	+	+	+				+		+	+	+	+		+		+	+		
Yuristlar		+	+	++		+		++	+			+		+	+		+	+	+	+	+	+		
O'g'ir sonoat		+	++	+	++	+	+		+					+			+	+	+	+	+	+		
Biznes, Moliya		+		+		+		+			+	+		+	+		+		+	+	+	+		

Ijodkorlar		+	+	+	+	+				+	+		+	+		+	+	+	+	+		
Uy xo'jaligi		+		+	+	+	+		+		+		+	+	+			+	+	+		
Jinoyatlar			+		++		+	+	+			+	+		+	+		+	+	+		
Boshqaruv			++	+		+	+		++	+		+	+		+	+		+		+	+	
Daydi - gadoylar			+			+	+		++			+	+		+			+	+	+		
Qishloq xo'jaligi		+	+		+		+		+		+	+		+	+	+		+	+	+		+
Pedagoglar, psixologlar			+	++			+		++	+	+		+		+	+		+	+	+		+
Shahar transporti		+	+		++	+	+		+			+	+		+			+		+	+	+

### **Subektiv lokal nazorat xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi**

Mazkur so'rovnoma S.R. Pantelev va V.V. Stolin tomonidan Dj. Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, subektiv lokal nazoratning ustun turini aniqlash uchun xizmat qiladi. So'rovnoma talabalar bilan tashxis o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, 32 ta band (26 ta haqiqiy va 6 ta chalg'ituvchi band) dan iborat.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Quyidagi juft-juft takidlardan o'zingizga maqul bo'lgan bittasini tanlang»

#### So'rovnoma matni

1.a) bolalar tarbiyasidagi muammolar ota-onalarning xaddan tashqari qattiq qo'lligi tufaylidir

b) bolalar tarbiyasidagi ko'pchilik muammolar ota-onalarning etarlicha qattiqqo'l emasligidan kelib chiqadi

2.a) hayotdagi ko'pchilik muvaffaqiyatsizliklar sababi omadsizlikdir

b) odamning omadsizligiga uning o'z xatolari sababdir

3.a) aholiga xizmat ko`rsatish sohalaridagi ko`pchilik muammolar ular bilan yaxshi kurash olib bormayotganligimiz sababli ro`y bermoqda

b) yaqin orada aholiga xizmat ko`rsatish sohalarini deyarli yaxshilab bo`lmaydi

4.a) odamning o`zi nimaga arzisa, boshqalar unga shunday munosabatda bo`ladilar

b) afsuski, ko`p hollarda odamning ijobiy sifatlari etiborsiz qoldiriladi

5.a) talaba hayotining tinch bo`lishi uning fakultet rahbariyati bilan bo`lgan munosabatiga bog`liq

b) masuliyatli va intizomli talabaning o`qish bilan bog`liq muammolari bo`lmaydi

6.a) o`qituvchilarning adolatsizligi haqidagi shikoyatlar ko`pincha asossiz bo`ladi

b) ko`pchilik talabalar ularning bahosi baxtli yoki baxtsiz tasoddifga bog`liq ekanini tushun- maydilar

7.a) omadsiz xech kim xayotda muvaffaqiyatga erisha olmaydi

b) agar qobiliyatli inson hayotda qo`p narsaga erisha olmagan bo`lsa, demak, u bor kuchini ishga solmagan

8.a) garchand harakat qilmang bazi odamlarga baribir yoqa olmaydiz

b) boshqalarga yoqmaydigan odamlar shunchaki ularning tilini tushunmaydi

9.a) nasl-nasab inson hayotida ko`p narsani hal qiladi

b) inson hayotining qanday bulishi uning o`z harakatlariga bog`liq

10.a) tajribamdan bilamanki, agar biror narsa ro`y berishi kerak bo`lsa, u ro`y beradi

b) men shunga amin bo`ldimki, omadga ishongandan qo`ra harakat qilgan afzal

11.a) darsga yaxshi tayyorlangan talaba ko`pincha yaxshi baho oladi

b) imtihon – bu lotereya va unga ko`p kuch sarflab tayyorlanish shart emas

12.a) muvaffaqiyat mashaqqatli mehnatdan keyin kelib, omadga deyarli bog`liq emas

b) yaxshi joyga joylashish uchun zarur vaqtda zarur joyda bo`lish kerak

13.a) talabaning fikri asosli bo`lsagina etiborga olinadi

b) talabalar dekanat qarorlariga deyarli tasir o`tkazmaydi

14. a) nimani rejalashtirmay men doim mo`ljallangan narsalarni qila olishimga

ishonaman

b) bazida ishni rejalashtirmagan maqul, chunki ko`p narsa vaziyatga bog`liq

15. a) shunday odamlar borki, ulardan hech yaxshilik chiqmaydi

b) har qanday insonda qandaydir yaxshi jihat bo`ladi

16. a) agar to`g`ri qaror qabul qilingan bo`lsa, natijaga erishish vaziyatga unchalik bog`liq bo`lmaydi

b) ko`p hollarda biz tavakkaliga qaror qabul qilamiz

17. a) kimning rahbar etib tayinlanishi omadga bog`liq

b) odamlarni boshqarish uchun maxsus qobiliyatlar kerak

18. a) olamdagi voqealar bizning ixtiyorimizdan tashqaridagi kuchlarga bog`liq

b) siyosat va jamoat ishlarida qatnashib odamlar jahondagi voqealarni boshqarishi mumkin

19. a) agar yotoqxonada hayot zerikarli bo`lsa, demak, talabalar qo`mitasi yaxshi ishlamayapti

b) yotoqxonadagi hayotni qiziqarli qilish talabalarning o`z qo`lida

20. a) ko`pchilik odamlar ularning hayoti tasoddiqlarga qanchalik bog`liq ekanini tushunmaydilar ham

b) omad degan narsaning o`zi yo`q

21. a) odamning bazida xato qilishga haqqi bor

b) odatda yo`l qo`yilgan xatolarni bekitgan maqul

22. a) nima uchun ayrim odamlarga yoqishimizni tushunish qiyin

b) do`stlar sonining ko`pligi o`zing qanday inson ekaning bog`liq

23. a) hayotimda ro`y beradigan ko`ngilsizliklar bilan muvaffaqiyatlar o`zaro muvozanatda bo`ladi

b) baxtsiz hayot insonda qobiliyatlarning etishmasligi, uning dangasaligi natijasi

24. a) magistrant talaba – bu avvallari bakalavriat bosqichida yaxshi o`qigan, qobiliyatli, mehnatsevar talabadir

b) magistraturaga kirish uchun tanish-bilish kerak

25. a) bazida o`qituvchilar bahoni nima asosida qo`yishini tushunolmay qolaman

b) qanchalik qo`p harakat qilsam, shunchalik yaxshi baho olaman

26. a) yaxshi etakchi har kim o`z ishini bilib-bilib qilishini kutadi

b) yaxshi etakchi har kimga nima qilish kerakligini ko`rsatadi

27. a) bugun sidqidildan mehnat qilsam, ertaga ilmiy muvaffaqiyatlarga erishaman

b) ko`pchilik ilmiy kashfiyotlar kutilmagan tasoddiqlar natijasidir

28. a) bazida hayotimda ro`y berayotgan hodisalarga men unchalik kuchli tasir ko`rsata olmayotganimni his etaman

b) hayotimda omad ko`p narsani hal qilishi mumkinligiga deyarli ishonmayman

29. a) odamning yolg`izligiga uning o`zi boshqalar bilan do`stlashishni xohlamasligi sabab bo`ladi

b) boshqalarga yoqish uchun harakat qilishdan foyda yo`q, yoqsang ularga shunday ham yoqasan

30. a) oliygohda keraksiz ravishda jismoniy tarbiyaga ko`p etibor beriladi

b) sport bilan shug`ullanish xarakter tarbiyasining eng yaxshi vositasidir

31. a) men bilan nima hodisa ro`y bersa, bunga avvalo o`zim sababchiman

b) bazida menga hayotim o`z-o`zidan o`tayotgandek bo`lib tuyuladi

32. a) oddiy talabaning dekanat nima asosda har xil qarorlar chiqarishini tushunishi qiyin

b) dekanat qat`iy choralar ko`rishiga talabalarining o`zi sababchi bo`ladi

### **Kalit**

**Internal lokus nazorat:** 2b, 3a, 4a, 5b, 6a, 7b, 8b, 10b, 11a, 12a, 13a, 14a, 16a, 17b, 18b, 19b, 20b, 22b, 23b, 24b, 25b, 27a, 28b, 29a, 31a, 32b.

**Eksternal lokus nazorat:** 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8a, 10a, 11b, 12b, 13b, 14b, 16b, 17a, 18a, 19a, 20a, 22a, 23a, 24a, 25a, 27b, 28a, 29b, 31b, 32a.

**Chalgituvchi bandlar:** 1, 9, 15, 21, 26, 30.

Subektiv lokal nazorat ko`rsatkichi sinaluvchi internal lokus nazorat darajasini o`lchashga xizmat qiluvchi bandlar bo`yicha to`plagan ball asosida hisoblab topiladi. Bunda 26 ball maksimal darajadagi internal lokus nazoratga, 0 ball esa maksimal darajadagi eksternal nazoratga muvofiq keladi.

So`rovnoma 300 nafar talaba bilan standartlashtirilgan: o`rtacha ball – 14,2; standart og`ishish darajasi – 4,4.

Quyidagi jadval asosida dastlabki ballar standart birliklar – stenlarga aylantirilishi mumkin.

dastlabki ballar	0-4	5-7	8-10	11-12	13-14	15-16	17-18	19-20	21-22	23-26
stenlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

### Tavakkalchilikka moyillik so`rovnomasi

Mazkur so`rovnoma tavakkal ravishda qaror qabul qilishga bo`lgan moyillik darajasini tashxis qilishga mo`ljallangan. So`rovnoma K.Levitin tomonidan taklif etilgan.

Ko`rsatma: «Quyida keltirilgan savollarga javob bering. Buning uchun javob varaqasidagi 5 ustundan biriga belgi qo`ying».

№	Savollar	Javob variantlari				
		ha	ha, shekilli	bilmadim	yo`q, shekilli	Yo`q
1	Og`ir kasalga yordam berish uchun mashinada belgilangan tezlikdan osharmidingiz?					
2	Katta tezlikda ketayotgan poezdning zinapoyasida keta olarmidingiz?					
3	Qochib ketayotgan xavfli jinoyatchining yo`lini to`sgan bo`larmidingiz?					
4	Sayohat vaqtida suvi juda sovuq bo`lgan daryoni birinchi bo`lib suzib o`tarmidingiz?					
5	Dressirovkachi bilan birga sherlarning qafasiga kirarmidingiz?					
6	Maxsus mashqlarsiz ham elkanli qayiqni boshqarishga rozi bo`larmidingiz?					
7	Birovning ko`rsatmasi bilan baland binoning tomiga chiqa olarmidingiz?					
8	Chopib ketayotgan otning jilovidan ushlashga uringan bo`larmidingiz?					
9	Mashinani yaqinda avtohalokatga uchragan tanishingiz haydab ketadigan bo`lsa, avtomobil sayohatiga chiqarmidingiz?					
10	10 metrlik balandlikdan o`t o`chiruvchilarning erga og`riqsiz tushishni taminlaydigan moslamasiga sakray olarmidingiz?					
11	Uzoq vaqt qiynab kelayotgan kasaldan qutulish uchun xavfli operaciyaga rozi bo`larmidingiz?					
12	Olti kishiga mo`ljallangan liftga etti kishi bilan kirgan					

	bo`larmidingiz?					
13	Rahbaringiz elektr toki o`chirilganiga ishontirsa, tok urishi mumkin bo`lgan simni ushlay olarmidingiz?					
14	Tegishli ko`rsatmalarsiz vertolyotni boshqargan bo`larmidingiz?					

### ***Javoblarni qayta ishlash.***

Har bir «ha» javobi uchun – 5 ball

Har bir «ha, shekilli» javobi uchun – 4 ball

Har bir «bilmadim» javobi uchun – 3 ball

Har bir «yo`q, shekilli» javobi uchun – 2 ball

Har bir «yo`q» javobi uchun – 1 ball

*Natijalar tahlili.* 60 va undan yuqori ball olgan tekshiriluvchilarda odatda tavakkalchilikka moyillikning yuqori darajasi kuzatiladi. 25 va undan kam ball to`plaganlar ko`pincha juda ehtiyotkor odam bo`ladilar.

### **Guruhdagi psixologik iqlimni o`rganish metodikasi**

Mazkur metodika guruhdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni o`rganishga mo`ljallangan bo`lib, maxsus ikki qutbli shkaladan tashkil topgan. Shkala F. Fidler tomonidan taklif qilingan.

Ko`rsatma:«Quyida mano jihatidan bir-biriga zid o`n juft jumla keltirilgan. Ushbu jumlar yordamida guruhdagi shaxslararo munosabatlarga baho berish mumkin. Bunda shuni etiborga olish kerakki, baho chap tomonga yaqinlashgan sari chap tarafdagi xususiyat darajasi, o`ng tomonga yaqinlashgan sayin o`ng tarafdagi xususiyat darajasi ortadi. Endi o`ylab ko`ring: guruhingiz azolari o`rtasidagi munosabat uchun ko`proq qaysi xususiyatlar xos?»

	8	7	6	5	4	3	2	1	
do`stona munosabat									dushmanlik kayfiyati
kelisha olish									kelisha olmaslik
guruhdoshlardan qoniqish									guruhdoshlardan qoniqmaslik
guruh ishlariga qiziqish									guruh ishlariga befarqlik



bir-birini himoya kilish									bir-birini himoya qilmaslik
inoqlik, ahillik									chiqishmaslik, noahillik
hamkorlik, hamfikrlik									bir-biriga ishonmaslik
O'zaro yordam									yaxshilikni ravo ko`rolmaslik
guruhdoshlarni xurmat qilish									guruhdoshlarga xurmatsizlik
guruhdosh yutuǵidan quvonish									guruhdosh yutuǵiga befarqlik

Natijalarni qayta ishlash va izohlash: 1) Barcha jumalarga qo'yilgan ballarning yigindisi topiladi (80-eng yuqori ko'rsatkich, 10-eng quyi ko'rsatkich); 2) har bir juftlik bo'yicha barcha ishtirokchilar to'plagan o'rtacha ballar hisoblab chiqiladi (har bir juftlik bo'yicha barcha ishtirokchilarning ballari o'zaro qo'shib, yigindi ishtirokchilar soniga bo'linadi); 3) o'rtacha ballarning bandlari o'zaro birlashtirilib chiqiladi (hosil bo'lgan egri chiziq ishtirokchilar guruhdagi psixologik iqlim haqida qanday fikrda ekanini aks ettiradi)

Eslatma: guruhning umumiy ko'rsatkichlarini har bir ishtirokchining ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali guruhdagi ijtimoiy-psixologik iqlimga noadekvat yuqori yoki past baho beruvchi sinaluvchilarni aniqlab olish mumkin.

### **Egocentrik associacyalar testi**

Mazkur proektiv test o'smirlar va katta maktab yoshi o'quvchilaridagi egocentrizm darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Egocentrizm – individning tegishli axborot tasirida ham biror bilish obektiga nisbatan bo'lgan o'zining boshlang'ich qarashlarini o'zgartirishga qodir bo'lmasligi; voqea-hodisalarga boshqa odamlar ko'zi bilan qaray olmaslik, boshqalar nuqtai nazarini tushuna bilmaslik. Ushbu xususiyat odatda 12-14 yoshlarga kelib, yo'qolib boradi yoki, aksincha, o'smirlilik davrida egocentrik tipdagi shaxsga xos xususiyatlar shakllanishi va mustahkamlanishi mumkin.

Metodika T.I. Pashukova tomonidan tavsiya etilgan bo`lib, 40 ta tugallanmagan gapdan iborat. Tekshiriluvchi xayoliga kelgan birinchi fikrni yozib, gapni tugallashi talab qilinadi.

1. Bunday vaziyatda ...
2. Eng osoni ...
3. Shunga qaramay ...
4. Borgan sayin ...
5. Unga nisbatan ...
6. Har qaysi ...
7. Attang ...
8. Natijada ...
9. Agar ...
10. Bir necha yil avval ...
11. Eng muhimi ...
12. Aslini olganda ...
13. Faqat ...
14. Haqiqiy muammo shundaki ...
15. Baribir ...
16. Shunday kun keladiki ...
17. Eng katta ...
18. Hech qachon ...
19. Bunga ...
20. Ilojsiz holatda ...
21. Muhimi shundaki ...
22. Bazan ...
23. Taxminan o`n ikki yildan keyin ...
24. O`tmishda ...
25. Gap shundaki ...
26. Ayni paytda ...
27. Yaxshisi ...
28. Hammasini etiborga olib ...

29. Agar bunday bo`lmaganda ...
30. Doim ...
31. Imkoniyat bo`lsa ...
32. Bu holda ...
33. Odatda ...
34. Hatto, shunday bo`lsa ham ...
35. Hozirgacha ...
36. Shart-sharoitlar bo`lsa ...
37. Eng qizigi ...
38. Qanday qilib ...
39. Yaqin kunlardan buyon ...
40. Faqat shundan keyin ...

*Natijalar tahlili* egocentrizm indeksini aniqlashga yo`naltiriladi. Egocentrizm indeksini topish uchun tekshiriluvchi nechta gapda birlikdagi birinchi shaxs kishilik olmoshi va uning har xil shakllari – «men», «mening», «meni», «menga» va boshqalar qo`llangani hisoblab chiqiladi. Shuningdek, tegishli olmoshlar ishlatilmagan, ammo aniq nazarda tutilgan gaplar, oxirigacha etkazilmagan, lekin tegishli olmoshni o`z ichiga olgan gaplar miqdori hisoblanadi. Nechta gapda yuqorida takidlangan holatlar qayd etilsa, ularning miqdori egocentrizm indeksi sifatida qabul qilinadi.

Eslatma №1: 10 tadan ortiq gapni yakunlamagan tekshiriluvchining javoblari tahlil etilmaydi.

*Natijalarni baholash* quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

Sinf	jins	past	O`rta	Yukori
5-sinf	o`gil bolalar	0-11	12-27	28-40
	qiz bolalar	0-10	11-26	27-40
6-sinf	o`gil bolalar	0-13	14-28	29-40
	qiz bolalar	0-14	15-26	27-40
7-sinf	o`gil bolalar	0-12	13-27	28-40
	qiz bolalar	0-13	14-25	26-40
8-sinf	o`gil bolalar	0-8	9-22	23-40
	qiz bolalar	0-9	10-23	24-40
9-sinf	o`gil bolalar	0-7	8-20	21-40
	qiz bolalar	0-8	9-23	24-40
10sinf	o`gil bolalar	0-7	8-20	21-40
	qiz bolalar	0-7	8-21	22-40

Eslatma №2: diagnostika jarayonida tekshiriluvchiga ko'rsatmadan tashqari nimanidir tushuntirish, uning gaplariga nisbatan baho berish yoki munosabat bildirish hamda tadqiqotning haqiqiy maqsadlarini malum qilish qat'iyat man etiladi.

### **Shvarclanderning motor sinovi metodikasi**

Mazkur metodika obektiv yondashuvga asoslangan amaliy test bo'lib, shaxsning talabgorlik darajasini- aniqlash uchun qo'llanadi. Talabgorlik darajasi avvalgi harakatlarda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka uchragach, odamning keyingi harakatlar uchun qanday murakkablikdagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishida namoyon bo'ladi. Metodika bir necha soniya davom etuvchi faoliyatni rejalashtirishga qodir bo'lgan barcha sinaluvchilar (10 yoshli bolalardan tortib keksalargacha) bilan ishlashda qo'llanishi mumkin

#### Metodikaning qo'llanishi.

Sinaluvchiga maxsus javob varaği beriladi (1-rasm). Sinaluvchidan u 10 soniyada varaqda keltirilgan bir to'g'ri to'rtburchakdagi nechta katakka «x» belgisini qo'ya olishi so'raladi. Bu son birinchi to'g'ri to'rtburchakning yuqorisidagi yacheyka (KN) ga yozib qo'yiladi. So'ngra belgilangan 10 soniyada eksperimentator ishorasi bilan sinaluvchi kataklarga «x» belgisini qo'yib chiqa boshlaydi va eksperimentator ishorasi bilan o'z ishini to'xtatadi. Keyin nechta katakka belgi qo'yilganini hisoblab, ularning sonini to'g'ri to'rtburchakning quyidagi yacheykasi (EN) ga yozib qo'yadi. Ikkinchi va to'rtinchi to'g'ri to'rtburchak bilan ham xuddi shunday amallar bajariladi. Uchinchi to'g'ri to'rtburchakda topshiriqni bajarish uchun ajratiladigan vaqt 8 soniyagacha qisqartiriladi, biroq bu sinaluvchilarga oshkor etilmaydi (atayin muvaffaqiyatsizlik vaziyati vujudga keliriladi).

#### Natijalar tahlili.

Shaxsning talabgorlik darajasi (TD) quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$TD = \frac{(KN2 - EN1) + (KN3 - EN2) + (KN4 - EN3)}{3}$$

Bu erda: KN2, KN3, KN4 – 2, 3, 4 sinovlardagi kutilgan natija

EN1, EN2, EN3 – 1, 2, 3 sinovlardagi erishilgan natija

Natijalarni baholash.

5 va undan yuqori - talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan juda yuqori;

4.99 : 3 - talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan yuqori;

2.99 : 1 - talabgorlik darajasi o`rtacha (real imkoniyatlarga adekvat);

0.99: -1.49 - talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan past;

-1.5 va undan kichik – talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan juda past.

1-rasm: Javob varaği

1	KN1																		
	EN1																		

2	KN2																		
	EN2																		

3	KN3																		
	EN3																		

4	KN4																		
	EN4																		

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – Кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приёмы и упражнения. 52-55 стр.

2. Бороздина Л.В. Исследования уровня притязаний: Учеб. пособие. – М.: Изд-во МГУ, 1985, - 103 с. 90-стр.

3. Ермолаева М.В., Захарова А.Е., Калинина Л.И., Наумова С.И. Психолого-педагогическая практика в системе образования. – М.: Издательство «Институт практической психологии», Воронеж: НПО «МОДЕК», 1998. 107-110 стр.

4. Ратанова Т.А., Шляхта. Психодиагностические методы изучения личности: Учебное пособие. – Переработанное и дополненное издание. - М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1998. 264с. 101-102, 183-186, 216-220 стр.

5. Семенюк Л.М. Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции: Учебное пособие. – М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1998. 33-35 стр.

6. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. Изд центр ВЛАДОС, 2000. – Кн. 1: Система работы психолога с детьми разного возраста. 346-353 стр.

7. Коломинский Я.Л. Человек: Психология: Кн. для учащихся ст. классов. – 2-е изд., доп. – М.: Просвещение, 1986. -223 с. 213-214 стр.

8. Залюбовская Е.В. Методика исследования восприятия индивидом группы // Методы исследования межличностного восприятия: Спецпрактикум по социальной психологии / Под ред. Г.М.Адреевой, В.С.Агеева. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1984. 64-71 стр.

## MUNDARIJA

So`z boshi.....	3
Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash so`rovnomasi.....	3
O`z xarakterimizni chizamiz.....	7
O`smir tomonidan sinfning idrok etilishiga xos xususiyatlarni o`rganish metodikasi.....	9
O`quvchi nerv tizimining xususiyatlarini o`rganish metodikasi.....	14
Faollashtiruvchi proforientacion metodika. «Kim rozi-yu Kim qarshi?» .....	19
Subektiv lokal nazorat xususiyatlarini o`rganish so`rovnomasi .....	35
Tavakkalchilikka moyillik so`rovnomasi .....	39
Guruhdagi psixologik iqlimni o`rganish metodikasi .....	40
Egocentrik assotsiatsiyalar testi .....	41
Shvartslarning motor sinovi metodikasi .....	44
Foydalanilgan adabiyotlar .....	46

*Elmuratova Aysulu Usaxovna* – Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «Psixologiya» kafedrasining o'qituvchisi.

## **SHAXS XUSUSIYATLARINI O`RGANUVCHI PSIXOLOGIK TESTLAR**

**(Metodik qo`llanma)**

<b>Bosh muharrir</b>	Q. M. Koshanov
<b>Tex muharrir</b>	X. K. Shamuratova
<b>Korrektor</b>	A.M. Saribaeva
<b>Operator</b>	N. Nisanbaev

**Ajiniyoz nomidagi NDPI tahririyat-nashr bo'limi**  
**Ajiniyoz nomidagi NDPI bosmaxonasida chop etilgan 2018-y.**  
**Buyurtma № \_\_\_\_.** Adadi \_\_ dona. Bichimi 60x84. Hajmi 2 b.t.  
**230105, Nukus shahri, P. Seytov ko'chasi n/j. Reestr № ----.**